

АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ХИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Vol. 4 Issue 01 | pp. 270-277 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SANOAT KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI



Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich,
 Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
 axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona
 filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanishni me'yorashtirishning nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aylanma mablag'lardan foydalanish holati statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan, sanoat korxonalarida aylanma mablag'lar foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy yondoshilgan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aylanma mablag'lar, pul mablag'lari, aylanma mablag'larni me'yorashtirish, o'z mablag'lari, aylanma mablag'lar samaradorligi.

ВОЗМОЖНОСТИ РЕГУЛИРОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБОРОТНЫХ СРЕДСТВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ И ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Нурматов Мирзаакбар Мирзаалиевич
 Ферганский филиал ТУИТ

Аннотация. В статье описаны теоретические и методологические основы нормирования использования оборотных средств на промышленных предприятиях. Кроме того, на основе статистических показателей проанализировано состояние использования оборотных средств в обеспечении финансовой устойчивости промышленных предприятий, с научным подходом разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности использования оборотных средств на промышленных предприятиях.

Ключевые слова: оборотный капитал, денежные средства, стандартизация оборотного капитала, собственные средства, эффективность оборотного капитала.

POSSIBILITIES OF REGULATING THE USE OF WORKING FUNDS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES AND INCREASING THE EFFICIENCY

Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich
Fergana branch of TUIT

Abstract. The article describes the theoretical and methodological foundations for rationing the use of working capital at industrial enterprises. In addition, based on statistical indicators, the state of the use of working capital in ensuring the financial stability of industrial enterprises was analyzed, and proposals and recommendations were developed with a scientific approach to improve the efficiency of the use of working capital in industrial enterprises.

Key words: working capital, cash, standardization of working capital, own funds, efficiency of working capital.

1. Kirish

Shiddatli raqobat muhiti sharoitida sanoati korxonalari ishlab chiqarishida mamlakatimiz iqtisodiyotini ustuvor darajada rivojlanirish orqali tarmoq va sohalarning raqobatbardoshligini va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash dolzARB vazifalardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalari ishlab chiqarishida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi bevosita aylanma mablag'lardan samarali foydalanishga bog'liq. Shu jihatdan, aylanma mablag'lar bilan doimiy ta'minlanishi va uning me'yoriy ta'minotga ega bo'lishi bevosita har qanday korxonaning moliyaviy ustunligini belgilab beradi. Demak, har qanday ishlab chiqarish korxonasida aylanma mablag'larining roli va ahamiyati ortib boradi.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish jarayonida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xaridorlarga yetkazib beruvchi yoki ta'minotchi korxonalarga xizmat ko'rsatish haqini o'z muddatida to'lashda moliyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etish hamda korxona o'z hisobidagi aylanma mablag'larni aylanishini to'g'ri tashkil etishi, to'lov uchun to'lanadigan aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish va aylanma mablag'lardan foydalanishni me'yorlashtirish mexanizmini tartibga solishga doimiy e'tibor qaratishi lozim.

2. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish borasida tadqiqot olib borgan MDH olimlaridan V.D.Gribov, V.P.Gruzinov, V.A.Kuzmenkolar tomonidan korxonada aylanma mablag'lar me'yorni belgilashda zaxira miqdorini kun va bir necha yillar uchun ishlab chiqilishini yoritgan. Shuningdek, aylanma mablag'larning materiallar uchun hisob-kitoblarni to'lash va ishlab chiqarishga o'tkazishdan tortib, tayyor mahsulotni sotish uchun omborga jo'natishgacha bo'lgan kunlar sonini aks ettiradi deb ta'kidlagan [2].

N.N.Bondar tomonidan keltirilgan ta'rifga ko'ra, korxona shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tovar-moddiy zaxiralarni shakllantirishga ajratilgan aylanma mablag'larning iqtisodiy asoslangan hajmlarini ishlab chiqarish va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Korxonaning me'yoriy ishlashini ta'minlash uchun

zarur bo'lgan pul ko'rinishidagi tovar-moddiy boyliklarning minimal hajmi aylanma mablag'lar me'yori deb ataladi [3].

Sanoat korxonalarining o'z faoliyatida aylanma mablag'lariga bo'lgan talabni aniqlash va uni me'yorlashtirishda aylanma mablag'larga bo'lgan me'yorlarni korxona o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Korxonada aylanma mablag'larni me'yorlashtirishning asosiy maqsadi bevosita korxonaga jalb qilinadigan mablag'larning muddatli ishlab chiqarish va muomala jarayonida samarali foydalanish hisoblanadi [4].

3. Tadqiqot metodologiyasi

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'arning me'yорини ta'minlashda korxona moddiy-tovar boyliklarining minimal zaxiralarini tavsiflagan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi pul mablag'lari o'lchovida, bevosita zaxira kunlari va zaxira me'yorlarida hisoblanadi. Shuningdek, aylanma mablag'larning me'yori aniqlangan ko'rsatkichga ko'paytirish orqali aniqlanadi va qoidaga ko'ra, pul mablag'lari ko'rinishida o'lchanadi hamda uni quyidagi formula asosida keltirish mumkin [5]:

$$\text{Naym.m} = \text{Nich.z.m} + \text{Ntich.m} + \text{Ntm.m} \quad (1)$$

bu yerda:

Naym.m – aylanma mablag'larning me'yori,

Nich.z.m – ishlab chiqarish zaxiralari me'yori,

Ntich.m – tugallanmagan ishlab chiqarish me'yori,

Ntm.m – tayyor mahsulot me'yori.

Sanoat korxonalarning moliyaviy jihatdan barqaror ishslashini ta'minlashda ishlab chiqarish tarmoqlarida aylanma mablag'lardan foydalanishning me'yoriy talablariga riosa etilishini ta'minlash, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish muhim masalalardan biridir.

4. Tahlil va natijalar


Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish borasidagi islohotlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Shu jihatdan sanoat korxonalariga pul mablag'larini keng jalb qilish, mavjud aylanma mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida me'yorlashtirish uslublariga va belgilangan me'yorlashtirish borasida huquqiy xujjalarga amal qilish borasidagi dolzarb vazifalar o'z yechimini kutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vazirliklar, idoralar va korxonalarning aylanma mablag'lari normativlari to'g'risida" 108-sonli qarorida bevosita korxonalarning moliyaviy ahvolini mustahkamlash, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish, Vazirliklar, idoralar, birlashmalar va korxonalar: o'zlariga qarashli birlashmalar va korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan holda aylanma mablag'larning tabaqalashtirilgan normativlarini ishlab chiqish, aylanma mablag'lar butunligi ta'milanishiga, ularning aylanishini tezlashtirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va bu borada korxona rahbarlarining javobgarligi va ma'suliyatini oshirish masalalari belgilab berilgan [1].

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan samarali foydalanishda aylanma mablag'larni samarali boshqarishga erishish mexanizmlaridan biri sifatida mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzlusizligini ta'minlashda aylanma mablag'larni to'g'ri sarflash va me'yoriy talablarga rioya etish maqsadga muvofiq. Shu jihatdan, sanoat korxonalarida aylanma mablag'lar aylanish siklining barcha bosqichida minimal darajada ishlab chiqarishga mos xom ashyo va pul mablag'larini to'g'ri taqsimlash zarur. Ushbu belgilangan vazifalar birinchi navbatda moddiy resurslar zaxiralarini hamda sarf-xarajatlarni me'yorlashtirish natijasida korxona samarali faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Sanoat korxonalarining o'z faoliyatida aylanma mablag'lari bo'lgan talabni aniqlash va uni me'yorlashtirishda aylanma mablag'larga bo'lgan me'yorlarni korxona o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Korxonada aylanma mablag'larni me'yorlashtirishning asosiy bevosita korxonaga jalb qilinadigan mablag'larning muddatli ishlab chiqarish va muomala jarayonida samarali foydalanish hisoblanadi [4].

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'larning me'yoriy tartib-qoidalarga amal qilish hamda ishlab chiqarish uchun zarur tovar va moddiy zaxiralar hajmini shakllantirishdan iborat.



Manba: Sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy xujjatlarni o'rghanish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-rasm. Sanoat korxonalarida aylanma mablag'larni me'yorlashtirishning asosiy mezonlari

Bevosita sanoat korxonalarida aylanma mablag'larni me'yorlashtirish mezonlari asosan o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi, ya'ni: korxona o'z moliyaviy rejasini tuzayotganda aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniq belgilash, korxona ishlab chiqarish dasturini tuzayotganda bevosita barcha turdag'i sarf-xarajatlar uchun aylanma mablag'lar hajmini rejalashtirish, aylanma mablag'larni me'yorlashtirish puldagi miqdoriy ko'rsatkichlari orqali ifodalash hamda tranzit shartlari asosida me'yorlarga amal qilgan holda moddiy boyliklarni xaridorga yetkazishda aylanma mablag'larning me'yoriy hisob-

kitoblarni ishlab chiqish va ushbu me'yorlarga amal qilish muhim masalalardan hisoblanadi (1-rasm).

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lar me'yorlarini hisoblashning quyidagi usullari qo'llaniladi: analitik usul, koeffitsent usul, to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usullaridan iborat. Aylanma mablag'lar me'yorini hisoblashda analitik (tahlil) usul bevosita aylanma mablag'larni haqiqatdagi o'rtacha qoldiqlari miqdorida ularni kengaytirilgan hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Ushbu usul korxonada aylanma mablag'larni jalb qilishga bevosita ta'sir qiluvchi omillar hamda korxona faoliyatiga ta'sir etadigan omillar tahliliy o'r ganib boriladi.

Aylanma mablag'lar me'yorini hisoblashda koeffitsent usuli aynan korxona tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish hajmi rejasining o'zgarishi hamda aylanma mablag'lar aylanishidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib ushbu me'yorlar asosida aniqlashtirish belgilangan.

Aylanma mablag'lar me'yorini hisoblashda to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usuli hisoblashning eng maqbul va murakkab usuli bo'lib, doimiy ravishda korxona tomonidan qo'llanishi maqsadga muvofiq [3].

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'larni me'yorlashtirish bevosita korxonaning uzlusiz ishlashini ta'minlaydigan manbaalarga ahamiyat qaratish lozim, ya'ni moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zaxiralarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini aniqlashda ifodalanadi. U ichki zaxiralarni aniqlash, ishlab chiqarish davri davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotish imkon yaratadi.

Ammo bizga ma'lumki, ishlab chiqarish amaliyotida korxonalarining barcha aylanma mablag'lari ham doimiy ravishda me'yorlashtirilmaydi. Shu jihatdan, aylanma mablag'lar me'yorlashtiriluvchi va me'yorlashtiril-maydigan turlarga bo'linadi. Korxonaning me'yorlashtiriluvchi aylanma mablag'lar ro'yxatiga korxona omborlarida mavjud ishlab chiqarish zaxiralari sifati (xom ashyo, turli asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i resurslari va boshqalar), tugallanmagan ishlab chiqarish ob'ektlari, kelgusi davr xarajatlari va korxona omboridagi tayyor mahsulotlar ham kiradi.

Korxonaning me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'lariiga bevosita xaridorlarga berilgan tayyor mahsulot yoki tovarlar, korxona hisob-raqamidagi pul mablag'lari tashkil etadi. Korxonalar faoliyatida barcha aylanma mablag'lar salmog'ida 85-90 foizni ishlab chiqarish zaxiralari tashkil etgan holda bu holatda aylanma mablag'lar me'yorlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan aylanma mablag'larni me'yorlashtirish bevosita korxonaning tejamkorlik tartibiga amal qilish va korxonaning moddiy resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'larni me'yorlashtirish jarayoni o'ziga xos bir necha bosqichlardan tashkil topgan bo'lib, aylanma mablag'larning har bir elementi bo'yicha ishlab chiqarish zaxiralarining me'yorli ishlab chiqiladi. Ishlab chiqarish zaxiralarining me'yorli ishlab chiqarish jarayoning uzlusizligini ta'minlovchi ularning ilmiy asoslangan rejali hajmidan iborat va u quyidagi shart-sharoitga bevosita bog'liq:

- korxonada mahsulot ishlab chiqarish davriyligining qisqa va uzunligi;
- korxonada mahsulot ishlab chiqarish uchun tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilish mavsumi;

- korxonada mahsulot ishlab chiqarish uchun ta'minotchilar masofasini hisobga olish;

- ta'minotchilar tomonidan yetkazib berilayotgan xom ashyolarning majmuaviyligi hamda rejalashtirilgan hajmda yetkazib berilishi;

- korxonaga keltirilgan xom ashyolarning sifatga javob berishi;

- korxonaning ta'minotchilar va xaridorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilinishi.

Sanoat korxonalarida mavjud moddiy resurslarning ishlab chiqarish zaxirasiga bo'naklashtiriladigan aylanma mablag'lar me'yорини hisoblash quyidagi formula bilan ifodalanadi [7]:

$$May = E \times U \times B \quad (2)$$

bu yerda:

M – aylanma mablag'larning me'yori,

E – aylanma mablag'larga bo'lган kunlik ehtiyoj,

U – o'rtacha interval uzoqligi,

B – aylanma mablag' birligining bahosi.

Bevosita barcha turdag'i korxonalar faoliyatining yil yakunida tugallanmagan ishlab chiqarish ob'ektlari hisoboti yuritiladi. Shu jihatdan korxonalarning tugallanmagan ishlab chiqarish holati bo'yicha aylanma mablag'larni me'yorlashtirish asosida ishlab chiqarishda mavjud buyumlarning guruhlari bo'yicha amalga oshiriladi hamda uni quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$Mt = Xo \times U \times Kx \quad (3)$$

bu yerda:

Mt – tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'larning me'yori,

Xo – mahsulotni ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlar me'yori,

U – ishlab chiqarishning takroriy jarayoni uzoqligi,

Kx – ishlab chiqarishda xarajatlarning o'sib borish koeffitsenti.

Tadqiqot obe'kti sifatida "Maksam-Chirchiq" AJ faoliyati tanlab olindi. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi holatini tahlil qilish borasida "Maksam-Chirchiq" AJ hisobot ma'lumotlariga tayangan holda tahlillar olib borildi. 2022 yilda korxona aylanma mablag'lari hajmi 1011609 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2021 yilda 867726 mln. so'mni tashkil etgan (1-jadval).

Tahlillar shuni ko'satadiki, 2022 yildagi korxonaning mavjud aylanma mablag'ining asosiy qismi, ya'ni, 76,3 foizi yoki 771959 mln. so'mni tovar-moddiy zahiralar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 13,9 foizini debitor qarz mablag'lari, 9,5 foizini pul mablag'lari (kassa va bank hisob varaqlaridagi pul mablag'lari) va 0,2 foizini qisqa muddatli investitsiyalar tashkil etgan.

1-jadval

"Maksam-Chirchiq" AJ korxonasi aylanma mablag'lari dinamikasi va uning tarkibi, mln. so'm

Yil	Aylanma	Shundan
-----	---------	---------

	mablag'lar jami (y)	Pul mablag'lari (x ₁)	Tovar- moddiy zahiralari (x ₂)	Debitor qarz mablag'lari (x ₃)	Qisqa muddatli investitsiyalar (x ₄)
2012	378 217	18 684	126 871	228 992	3 670
2013	560 574	16 627	157 732	382 568	3 646
2014	566 831	31 973	161 018	370 231	3 609
2015	779 188	6 380	142 374	626 859	3 575
2016	503 951	5 221	133 283	361 931	3 516
2017	551 433	29 856	147 797	373 299	481
2018	309 875	21 249	199 970	87 147	1 509
2019	499 535	38 748	347 381	112 817	589
2020	599 063	23 074	416 136	159 826	27
2021	867 726	192 324	530 578	144 469	355
2022	1 011 609	96 458	771 959	140 928	2 264

Manba: "Maksam-Chirchiq" AJ korxonasi hisobotlari asosida tuzilgan.

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va aylanma mablag'lardan foydalanish me'yorlariga amal qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- sarflanadigan aylanma mablag'larning me'yorlariga amal qilish;
- korxonaga kirish qilinadigan xom ashyo va moddiy resurslar sarfini ishlab chiqarish talabidan kelib chiqib shakllantirish;
- korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni xaridorlarga sotishda shartnomalariga amal qilinishini doimiy nazorat qilish;
- to'lovga qobiliyatli korxonalar bilan oldi-sotdi operatsiyalarida ishtirok etish;
- debitorlik qarzdorligini pasaytirish choralarini ko'rish;
- korxonada aylanma mablag'lar harakati boshqaruvini samarali tashkil etish;
- korxonada aylanma mablag'lardan samarali foydalanishda ishlab chiqarish zaxiralarini shakallantirishda belgilangan mezon talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
- aylanma mablag'lar hajmini oshirishda tashqi investorlarni jalb qilish yo'llarini o'rganish;
- aylanma mablag'larni moliyalashtirish manbaalarini to'g'ri shakllantirish (kredit mablag'lari hajmining o'sishini oldini olish);
- korxonada aylanma mablag'lar hajmi va uning ishlatilish maqsadlari bo'yicha muddatli ichki audit o'tkazish ishlarini olib borish va boshqalar.

5. Xulosa va takliflar

Raqobat keskinlashuvi sharoitida korxonada aylanma mablag'lardan samarasiz foydalanish yoki aylanma mablag'larning me'yoriga amal qilmaslik, bir tomonidan korxonalarning to'lovga qobiliyati darajasini pasayishiga, ikkinchi tomonidan korxonaning moliyaviy tanglik holatiga olib keladi. Shu jihatdan, korxonaning barqaror ishlashini ta'minlashda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va ishlab chiqilgan aylanma mablag'lar me'yoriga amal qilishni nazorat qilish va bu borada kerakli chora-tadbirlarni o'z vaqtida ko'riliishi maqsadga muvofiq.

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan samarasiz foydalanish yoki aylanma mablag'larning me'yoriga amal qilmaslik, korxonalarining to'lovga qobiliyati darajasini pasayishiga, korxonaning bankrotlik holatiga tushib qolishiga sabab bo'ladi. Sanoat korxonalarining barqaror ishlashini ta'minlashda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va aylanma mablag'lar me'yoriga amal qilishni domiy nazorat qilish hamda bu borada kerakli chora-tadbirlarni o'z vaqtida ko'rish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vazirliklar, idoralar va korxonalarining aylanma mablag'lari normativlari to'g'risida" 108-sonli qarori. 25.02.1997 yil. <https://lex.uz/docs/475379>
2. В.Д.Грибов. В.П.Грузинов, В.А.Кузьменко. Экономика организаций (предприятия): учебник. – 10-е изд., стер.-М.: КНОРУС, 2016. – 416 с.
3. Н.Н.Бондарь. Экономика предприятия: Учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений. - К.: МАУП, 2007. - 432 с.
4. Таспанова А.К. Корхоналар айланма маблағларини молиялаштириш амалиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. - Т.: 2019. 50-б.
5. R.S.Muratov, I.A.Djalilov, S.Sh.Oripov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik.-T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2014, 424-bet.
6. В.Д.Грибов. В.П.Грузинов, В.А.Кузьменко. Экономика организаций (предприятия): учебник. – 10-е изд., стер.-М.: КНОРУС, 2016. – 416 с.
7. Т.С.Маликов. Молия-хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма.-Т.: "ИҚТИСОД-МОЛИЯ", 2009, 288-бет.
8. А.У.Бурханов. Саноат корхоналари молиявий барқарорлигини баҳолаш усули. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2018 йил. 18-бет.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

